

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ABDULLA QODIRIYNING “O’TKAN KUNLAR” ROMANIDA OSHKORA VA YASHIRIN FOJEAVIYLIK TASVIRI

Maxbuba Abduraximova

ToshDO’TAU O’TAT, 4 kurs talabasi

mahbubaxon0203@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk adib, o’zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidagi qahramonlar taqdirida oshkora va bir qarashda ilg’animaydigan yashirin fojeaviylik haqida so’z boradi. Hasanali, Homid, Zaynab, Xushro’y, Usta Alim, Saodat kabi qahramonlar hayotida yuz bergan voqeliklar, har birining o’ziga yarasha fojeasi borligi va qay biri bunga qanday pozitsiyadan turib qaragani oxir oqibat ularning shaxsiyatini shakllantirishi, asar voqealari rivojida qanday harakatlanishini belgilab beradi.

Kalit so’zlar: Tragizm, qahramon, konsepsiya, tragik xato, badiiylik, ruhiyat, kechinma.

Аннотация: В данной статье рассматривается явная и на первый взгляд незаметная скрытая трагичность в судьбах героев романа "Минувшие дни" великого писателя, основоположника узбекского романизма Абдуллы Кадыри. События, происходящие в жизни таких персонажей, как Хасанали, Хамид, Зайнаб, Хушрой, Уста Алим, Саодат, наличие у каждого из них своей трагедии и то, с какой позиции они на это смотрят, в конечном итоге формируют их личность и определяют, как они действуют в развитии событий произведения.

Ключевые слова: Трагизм, герой, концепция, трагическая ошибка, художественность, психология, переживание.

Annotation: This article discusses the overt and subtle tragic elements in the fate of characters from the novel "Bygone Days" by Abdulla Qodiri, the great writer and founder of Uzbek novel writing. The events that unfold in the lives of characters such as Hasanali, Homid, Zaynab, Khushro'y, Usta Alim, and Saodat reveal that each has their own unique tragedy. The article examines how these characters' perspectives on their tragic circumstances ultimately shape their personalities and influence their actions throughout the development of the novel's plot.

Keywords: Tragedy, protagonist, concept, tragic flaw, artistry, psyche, experience.

Abdulla Qodiri o‘zining “O’tkan kunlar” romani avvalida: “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar. Shunga ko‘ra mavzu’ni moziydan, yaqin o’tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keyingi “xon zamonlari”dan belguladim.” [Qodiri, 2018: 5] deb yozadi. O‘qirmanni xayolan yaqin o‘tmish tomon olib ketarkan, o’sha davr kishisi hayoti, turmush tarzi, ruhiyati, kechinmalarini mohirona tasvirlaydi. Asarni mutolaa qilar ekansiz, insonning baxti, saodatli kunlari, quvonchlari bilan birga (balki undan ham ko‘proq) ulkan fojeasiga ham guvoh bo‘lasiz. Asarda o‘qirmanga ochiq-oydin ko‘rinib turgan tragizm bilan birga, u qadar ko‘zga tashlanmaydigan – yashirin fojeaviylik ham mavjud. Adabiyotshunoslik lug‘atida tragizmga shunday ta’rif beriladi: “ТРАГИКЛИК, ТРАГИЗМ (русчадан калька: «трагическое») - воқеликка муносабат тури;

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

бадиийлик модуси. Т. сатира каби, қаҳрамонлик модусининг кейинги давларда транформацияга учраши натижасида, юзага келган бўлиб, бу жиҳатдан трагизм қаҳрамонликка нисбатан вертикал, сатирага нисбатан горизонтал параллел қўйилади. Трагик модус қаҳрамони ўз ичидан белгилаган чегаралар унинг учун ташқаридан белгиланган чегаралардан анча кенг бўлиши билан қаҳрамонлик ва сатирик модуслардан фарқланади. Трагизмга хос «мен-оламда» концепциясига кўра, трагик қаҳрамон оламдаги ўзи учун белгиланган ўринга сифмайди, қаҳрамоннинг оламда ўз мавжудлигини тасдиқлашга интилиши олам тартиботига зид келади, бу эса ташқи олам унинг учун белгилаган чегараларни бузиш (трагик хато, трагик айб) билан тенгдир. Шунинг учун трагик конфликт мавжуд шароитда ечими йўқ, келиштириб бўлмас зиддият дея таърифланади. Трагик қаҳрамон учун иккита йўл бор: ё ўзлигидан воз кечиш, ё хато ва айб орқали бўлса-да ўзлигини тасдиқлаш.” [Қуронов, Мамажонов, Шералиева, 2013: 336] Romanda bunday qahramonlar talaygina. Masalan, usta Alim, Homid, Zaynab, Hasanali, Xushro‘ybibi va boshqalar.

Hasanali asarda yashirin fojelikni ifodalab keladi. “...oltmish yoshlar chamasida”gi “...cho‘ziq yuzlik, do‘ngirroq uzun soqollik” [Qodiriy, 2018: 7] bo‘lgan bu kishi “bolaliq vaqtida Erondan kishi o‘g‘irlab kelguchi bir turkman qo‘lidan Otabekning bobosi o‘n besh tillo barobariga sotib olgan” [Qodiriy, 2018: 8] qul edi. Insonning ixtiyori o‘zida bo‘lmay birovga qul bo‘lib umr o‘tkazishi juda katta fojea. Garchi otbeklar oilasi a’zosidek bo‘lib ketgan, ulug‘ dargohda istiqomat qilsa-da, baribir o‘z-o‘ziniki bo‘lgan kulbasida, o‘z istagicha umrguzaronlik qilmagani achinarli hol. Boz ustiga, uning o‘zi kabi sotib olingan cho‘riga uylanib, farzand ne’matidan bebaxra ekani uning dardini ikki xissa orttiradi. Asarda bu haqida: “Hasanali o‘ttuz yoshliq vaqtida sotib olg‘an bir cho‘riga uylantirilgan bo‘lsa ham, ammo o‘g‘il-qizlari bo‘lmaq‘an, bo‘lsalar ham yoshliqda o‘lib ketkanlar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Otabekka ixlos qo‘yib, unga o‘z bolasi kabi qarar: “O‘lganimdan keyin ruhimga bir kalima qur’on o‘qusa, bir vaqlar Hasanali ota ham bor edi deb yodlasa, menga shunisi kifoya” deb qaror bergen va hozirdan Otabekka bu to‘g‘rida siperishlar berib, undan samimiyl va’dalar olib yurg‘uchi oq ko‘ngil bir qul edi” [Qodiriy, 2018: 8] deb tilga olinadi. Taqdirining achchiqligini qarangki, u o‘ziga yupanch berib, umid ko‘zlarini tikkani, ortida qolib duogo‘yi bo‘lishini orzulagani – Otabek undan avval halok bo‘ladi. Bu esa uning umr bo‘yi qilgan mehnatlari, chekkan zahmatlarini go‘yo yo‘qqa chiqaradi (albatta, bu o‘rinda inson qilgan har qanday yaxshi ishlari uchun chin dunyoda ajr-u savob olishi muqarrar, ammo bandai ojiz har doim ham o‘ziga bu taskinni berolmaydi) Biroq Hasanali tabiatidagi

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

yuvoshlik va zakiylik sabab, isyon qilmaydi, o‘z holidan shikoyatchi bo‘lib, qandaydir xatoliklarga yo‘l qo‘ymaydi. Mavjud holatni o‘zgartirish orqali o‘zligini tasdiqlash alomatlari sezilmaganidan uning fojeasi o‘qirman nazaridan biroz chetda qoladi.

Yusufbek hoji va millat fojeasi. Otabekning otasi romanda intellektual qahramon bo‘lib, muallifning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy konsepsiyanini ro‘yobga chiqaradi. Millat oydini va jonkuyarlarining tipik obrazi bo‘lgan Yusufbek hojining fojeasi o‘quvchiga yaqqol ko‘rinib turadi. Avvalo u Azizbek degan zolimning maslahatchisi bo‘lsa ham uning oldida hojining tanqidiy fikrlari, takliflari ahamiyatsiz edi.

“– Otangiz Azizbekning mushoviri ekan, – dedi Akram hoji, – nima uchun uni biroz bo‘lsa ham yo‘lga solmaydir?

– Kechiringiz, amak, – deb Otabek kulimsiradi, – siz otamning mushovirlig‘ini boshqacharoq onlag‘ang‘a o‘xshadingiz... bizning beklarga hukm vaqtida ham mushovir bo‘lmoq imkonsiz narsadir. Otam Azizbekning mushoviri va musohibi sanalsa ham va lekin bu juz’iy ishlardaginadir <...> Bu hukm majlisida hozir turgan otam mahkumning gunohini so‘raganida Azizbek jallosga baqirar: “Tezroq olib chiq!” otam tag‘in qulluq qilg‘anida jallosga buyurar: “ Qo‘lingdag‘ini bo‘shatib, o‘rniga hojini olib chiq!” – Mana ko‘rdingizmi, otamning qadr-u qiymatini. [Qodiriy, 2018: 15] Ziyoli inson eshitilmas ekan, millat taqdiri tanazzulga yuz tutaveradi. Keyinchalik Muhammad Rajab qo‘rboshining uyidagi yig‘inda ham Yusufbek hoji qipchoqlarga qarshi bo‘layotgan birodarlrini insofga chaqirib, birlashish lozimligini, bir yoqdan ruslar bosqini xavfini bashorat qiladi: “Mana burodarlar! Siz o‘z qipchog‘ingiz uchun qabr qazig‘an fursatda, sizga ikkinchilar tobut chopadir Biz qipchoqqa qilich ko‘targanda, o‘rus bizga to‘p o‘qlaydir. Siz dunyoda o‘zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko‘rsangiz, men boshqa yovni har zamon o‘z yaqinimg‘a yetkan ko‘raman!” [Qodiriy, 2018: 279] Ammo yig‘indagilar uning gapiga quloq solmaydilar. Oqibatda nechalab begunoh qipchoq xalqi qatliom qilinadi va o‘zbek xalqiga ruslarning xavfi haqidagi bashorat asar yakuniga haqiqatga aylanadi. Bu haqida adabiyotshunos olim Umarali Normatov shunday deydi: “Tarix ko‘rsatdi, ayni shu falokat yuz berdi, xalq salkam bir yarim asr davom etgan mash’um istibdod jabrini chekdi” [Yoshlik, 2019/2] Bu ulkan fojelik bиргина Yusufbek hoji timsolida yuzlab yusufbeklar, otabeklarning alaloqibatda millatning fojeasini ko‘rsatadi. Yusufbek hojining Otabek aybloviga qarshi aytgan so‘zlarini eslavmiz: “O‘zing o‘ylab ko‘r o‘g‘lim, o‘z qo‘limiz bilan o‘zimiznikini kesishimizdan mamlakat uchun qanday foyda bor? Basharti men bu vahshatka

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ishtirok qilg‘an bo‘lsam, qaysi aql va qanday manfaatni kuzatib qo‘shilishqan bo‘laman? Agarda manim yurt so‘ramoqqa va shu vosita bilan boylik orttirmoqqa orzum bo‘lsa, boshqalardan ham ko‘ra o‘z o‘g‘limg‘a senga ma'lum bo‘lmasmidi? Nega har bir narsaga yetkan aqling shunga qolg‘anda oqsaydir. Nega yong‘an yurakimga yana sen ham zahar sochasan?!” [Qodiriy, 2018: 293] Yusufbek hoji kabi oydinlarning so‘zi inobatga olinmasligi, xalq kelajagini zig‘ircha o‘zgartirishga kuchi yetmasligi, buning natijasida ularning hammasidan “etak siltashi” bu ayrim qahramonlar emas, butun boshli millatning mudhish fojeasi edi.

Homid romandagi salbiy qahramon obrazini gavdalantirgan bo‘lsa ham, uning ham o‘ziga yarasha fojeasi bor, borki bu narsa uning xatti-harakatini, qilgan noma’qul ishlarining tub ildizini ochib beradi. Homid toifasidagi kishilarni Farobiy jaholatdagi va adashgan shahar ahllari deydi va yozadi: “Ularning ba’zilari bunday fikrlashadi: ba’zi mavjudotlar bir-biriga qarshidir va bir-birlarini yo‘q qilishga intiladilar. Mazkur mavjudotlarning har biri yashash sharoitida shunday quvvayi mahfuzga egaki, shu narsa vositasida u qarama-qarshi mavjudotdan o‘zini himoya qiladi va o‘z zotini yo‘qolib ketishdan asrab qoladi. U yashash sharoitida yana shunday quvvatga egaki, shu narsa vositasida u o‘ziga qarshi narsani yo‘qotib, o‘rnida o‘ziga o‘xhash mavjudotni paydo qiladi. Va nihoyat, unga shunday bir qobiliyat beriladiki, shuning yordamida u turli narsalardan foydalanib, yashash uchun doimiy yaxshi sharoit vujudga keltirishga intiladi.” [Forobiy, 2004, 52-53] Marg‘ilonning davlatmand odamlaridan bo‘lsa ham “Homid xotinboz” laqabi bilan tilga olinguvchi bu kishi ikki karra uylansa ham oilaviy tinchlik, halovatga erishmagan, muhabbat atalmish yuksak tuyg‘udan benasib qolgan edi. Ayniqsa xotinlari tomonidan uning o‘limi kutilishi shunday tasvirlanadi: “Qo‘qonda o‘lsa, o‘ligini itlar yesa biz achinarmi edi” [Qodiriy, 2018: 62] Yaratgan yuksak mehr-muhabbat ila, xatto farishtalaridan ham a’lo ko‘rgan odam bolasining bunday chirkin hayot tarzi, noma’qul ishlari, ayanchli yakuni katta fojea! Asardagi boshqa qahramonlar bilan munosabatga kirishar ekan, birortasi Homidni xushlamaydi, qora cho‘tir yuzli, qo‘lansa so‘zli deb sifatlashadi. Abdulla Qodiriy uning tashqi ko‘rinishini tasvirlaganda botini qandayligiga ham ishora beradi. Otabekka kontrast qilib berilgan bu ikki xotinli er biror kun bo‘lsin saodat ko‘rmadi. Hasad, fisq-u fasod, dushmanchilik bilan yashab, shuning ortidan o‘lim topdi. Yuqorida tragizmga berilgan ta’rifga solishtirib ko‘rsak, Homid olamda mavjudligini tasdiqlash uchun ko‘plab tragik xatolarga qo‘l urgani va so‘nggisi orqali o‘z umriga zavol bo‘lgani nihoyatda mahorat bilan tasvirlanadi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

“Ikkinchilar” fojeasi. Opa-singillar: Xushro‘y va Zaynabning ikkinchi xotin bo‘lishi achinarli hol. Nima uchun ular birinchi bo‘lishmadi?! Ikkovi ham Toshkentning manaman degan go‘zal qizlari edi. Ota-onalari ham baobro‘ kishilar bo‘lgani holda ularning baxti kulmadi. Ikkovi tamoman boshqa-boshqa dunyo bo‘lgan bu opa-singillarning fojeasi – sevilmaganliklarida! Ayol kishi mol-dunyo, obro‘-e’tibor, zeb-ziynat kabi moddiy ne’matlari ziyoda bo‘lsa ham, fitratan mehr-muhabbat, g‘amxo‘rlikka muhtoj hisoblanadi. Xushro‘yning tashqaridan qat’iyatli, cho‘rtkesar, shaddod fe’li ortida ham asli mehrga muhtojlik yotadi. U o‘zining bu zaif tomonini niqoblashga urinadi: “Men yig‘lashni bilmayman! Kishilar yig‘lag‘anda, manim kulgim qistaydir.” [Qodiriy, 2018: 364] “Men shu choqq‘acha, - dedi Xushro‘y, - bandasiga bosh egishni va bandasi oldida tavba qilishni or bildim va orlanishim orqasida har kimning ustida yurdim..” [Qodiriy, 2018: 363] ayolning bu gaplari aslida ojizaligidan. U o‘z ojizligini yashirish uchun, odamlar oyoq ostida qolib ketmaslik uchun kuchli bo‘lishga va hech kimga suyanmaslikka o‘rganadi. Ammo nega? degan o‘rinli savol tug‘iladi. Axir uning otasi, ikki akasi bor edi-ku! Fikrimizcha, buning sababi o‘sha davrdagi ayol-qizlarning jamiyatda tutgan o‘rni bilan izohlanadi. U zamonalarda ayollar oxirgi darajali hisoblanar, ota-onalar uning ra‘yidan tashqari istaganiga uzatishar, erlar xohlaganicha xo‘rlar edi. Shuning vajidan Xushro‘y juda yoshligidan o‘z-o‘zini himoya qilaman deb shunday bo‘lib qolgan. Bu narsa uning so‘zlarida ham ko‘rinadi: “– Dushman o‘zi nima degan so‘z? – dedi, senga boya ham aytdim: kishining dunyoda do‘sti yo‘q, magar nafsiga o‘zi do‘st; kishining dunyoda dushmani yo‘q, magar nafsiga o‘zi dushman! Masalan sen o‘zing: otangg‘a, onangg‘a do‘stim, deb ishonding ammo ulardan nima yaxshiliq ko‘rding?” [Qodiriy, 2018: 365] Zaynab esa uning aksi edi. U doim dardini ichiga yutib yashadi va pichoq borib suyakka yetgandagina “yorildi”. Uning bu fe’li opasinikidan ancha xavfli edi. Chunki Xushro‘y har narsaga norozilagini darrov izhor etib, o‘z manfaatini himoya qilsa, Zaynabning alami ichida fasod bog‘lab qolardi. Balki shu sababdan u ikkinchi xotinlikka berilsa ham indamagandir? Balki ichidan buni istamagandir? Ammo buni ochiq ayta olmagan. To Kumush Toshkentga kelgunga qadar birmuncha tinch yashagan Zaynabning paymonasi, kundoshini ko‘rgach, u homilador bo‘lgach avj oladi va mudhish xatolik qilishiga olib keladi. Zaynabning fojeasi uning Kumush o‘lgandan keyin telba bo‘lib qolishida ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. Ayniqsa Otabek uni Kumushning qabri yonida ko‘rganida “Men Kumush!” deb aytishi tragizmni cho‘qqiga olib chiqadi.

Usta Olim fojeasi. Asarning eng nurli qahramonlaridan bo‘lgan usta Alim va Saodatning muhabbatini chin muhabbat edi. Ustaning Saodat bilan o‘tgan saodatlari

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

kunlari yakun topib, ayolidan ayrilishi, undan so'ng qaynonasining majburlashlari bilan olgan xotiniga ko'ngli bo'lmasligi va ajralib ketishi, alaloqibatda dunyodan toq o'tishga qaror berishi ham inson achchiq fojealaridan biri. Hazrat Navoiy:

Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q,
Mulkkim sultoni yo'q, jismedururkim, joni yo'q.

deganda nechog'lik topib yozganliklarini shu ikki sevishgan misolida ham ko'rishimiz mumkin. Inson nafaqat ijtimoiy, ruhoniy ildizga, balki biologic ildizga ham ega ekanligini hisobga olgan holda qirchillama yoshdagi erkakning dunyodan yolg'iz o'tishga ahd qilishi oson emasligini unutmaslik lozim. Usta Alim yana turmush qilishi tabiiy zarurat taqazosidan bo'lardi. Ammo uning yurak dardi shu qadar og'irki, uning oldida zarurat ham ortga chekinadi. Roman so'ngida Qanoatsho Yusufbek hojiga bitgan maktubida: “O'g'lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo'shunda edi. Olmaota ustidagi o'russ bilan to'quinishmamizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib shahid boldi. Men o'z qo'lim bilan ikkisini dafn etdim...” [Qodiriy, 2018: 381] deganda “yana bir kishi” kim ekanligi aytilmasa ham, o'qirman uning usta Alim ekaniga shubha qilmaydi. Bilagi kuchga, yuragi muhabbatga to'la bu ikki er yigitning o'limi shonli bo'lishi bilan bir qatorda fojeaviy hamdir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni birlashtirib, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abdulla Qodiriy mahorati nafaqat qahramonlar portreti, davr chizgisi, tabiat tasviri, ichki o'y-kechinmalar ifodasi bilan, shu bilan birga o'z ijodiy konsepsiyasini qahramonlar, ularning fojealari orqali taqdim eta olishida ham ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Forobiy, “Fozil odamlar shahri”. Nodir va dono fikrlar. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, – 160 b.
2. Normatov, “O'tkan kunlar” saboqlari” maqola. Yoshlik jurnali, 2019, 2-son.
3. Qodiriy, “O'tkan kunlar” roman. “Asr oshgan asarlar” turkumi – T.: “Sharq”, 2018. – 384b.
4. Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати Ташкент: Akademnashr, 2013. - 408 б.